



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



**VOL.3 № 1**

**2026**

## **TA'LIM TIZIMIDA ALFA AVLOD VAKILLARI UCHUN KASB-HUNAR UZVIYLIGINI TA'MINLASH**

**Mo'minov Sulton Akbar o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh  
mutaxassisi

### **Annotatsiya.**

Mazkur maqolada ta'lim tizimida alfa avlod vakillarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarining uzviyligini ta'minlash masalasi tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'lim bosqichida bolalarda kasblar haqidagi boshlang'ich tasavvurlarni shakllantirishning ahamiyati, umumiy o'rta ta'lim bosqichida esa o'quvchilarning qobiliyat va qiziqishlarini aniqlashga qaratilgan psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash usullari yoritiladi. Kasbiy ta'lim tizimida tanlangan yo'nalish bo'yicha amaliy ko'nikmalar hamda mehnat bozori talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni tahlil etiladi. Maqolada ta'limning barcha bosqichlarida kasbga yo'naltirish jarayonlarining izchilligini ta'minlovchi yagona tizimning ahamiyati, ayniqsa raqamli muhitda ulg'ayayotgan alfa avlodining ehtiyojlari bilan bog'liq holda asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Alfa avlod, kasb-hunar uzviyligi, kasbga yo'naltirish, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasbiy ta'lim, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash, raqamli kompetensiyalar, kasbga yo'naltirish, mehnat bozori talablari, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar.

## **ENSURING CONTINUITY OF VOCATIONAL EDUCATION FOR GENERATION ALPHA IN THE EDUCATION SYSTEM**

**Mo'minov Sulton Akbar o'g'li**

Chief Specialist, Republican Scientific and Methodological Center for Education  
Development of the Republic of Uzbekistan

### **Annotation.**

This article analyzes the issue of ensuring continuity in career and vocational guidance for Generation Alpha within the education system. It highlights the importance of forming initial career awareness in early childhood education and examines psychological and pedagogical support methods aimed at identifying students' abilities and interests in general secondary education. The article also explores the process of developing practical skills and labor market-oriented competencies within the vocational education system. Particular attention is given to the significance of an integrated and coherent career guidance framework across all stages of education, especially in relation to the needs of Generation Alpha growing up in a digital environment.

**Keywords:** Generation Alpha, vocational continuity, career guidance, early childhood education, general secondary education, vocational education, psychological and pedagogical support, digital competencies, career orientation, labor market requirements, children with special educational needs.

## **ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНО- ТЕХНИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ПОКОЛЕНИЯ АЛЬФА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ**

**Мўминов Султон Акбар угли**

главный специалист Республиканского научно-методического центра развития  
образования Республики Узбекистан

### **Аннотация.**

В статье анализируется проблема обеспечения преемственности процессов

профессиональной ориентации представителей поколения Альфа в системе образования. Раскрывается значение формирования первоначальных представлений о профессиях на этапе дошкольного образования, а также освещаются психолого-педагогические методы поддержки, направленные на выявление способностей и интересов обучающихся в системе общего среднего образования. В системе профессионального образования анализируется процесс формирования практических навыков и компетенций, соответствующих требованиям рынка труда, в рамках выбранного профессионального направления. В статье обосновывается значимость единой системы, обеспечивающей последовательность профессиональной ориентации на всех уровнях образования, с учётом потребностей поколения Альфа, формирующегося в условиях цифровой среды.

**Ключевые слова:** поколение альфа, преемственность профессионального образования, профориентация, дошкольное образование, общее среднее образование, профессиональное образование, психолого-педагогическая поддержка, цифровые компетенции, профессиональная направленность, требования рынка труда, дети с особыми образовательными потребностями.

### **Kirish**

Yoshlarda amaliy ko'nikmalar, zamonaviy kompetensiyalar va kasbiy madaniyatni shakllantirish, ta'lim tashkilotlarida ta'lim oluvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish samaradorligini oshirish, shuningdek, kasbiy ta'lim tizimi boshqaruvini isloh qilish orqali mamlakatning inson kapitali borasidagi imkoniyatlarini to'liq ishga solish maqsadida mamlakatimizda samarali ishlar amalga oshirilib, davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi.

Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 23-oktabrdagi PF-190-sonli Farmoni, "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-316-sonli qarorlari bu kabi ishlarning yaqqol namunasidir.

Zamonaviy ta'lim tizimi jadal rivojlanayotgan raqamli davr sharoitida tubdan o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda ta'lim tizimiga kirib kelayotgan alfa avlod – ya'ni 2010-yildan keyin tug'ilgan bolalar – zamonaviy texnologiyalar bilan ulg'aygan, tezlik bilan fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qilishga intiladigan va amaliy tajribani qadrlaydigan avlod sifatida ajralib turadi. Ularning ehtiyojlari, qiziqishlari va o'qish uslublari avvalgi avlodlardan mutlaqo farq qiladi. Shu sababli ta'lim tizimi ham o'z oldiga yangi vazifalarni qo'yadi: yoshlarning tabiiy qobiliyatlarini qo'llab, ularni kelajak kasblariga ixtiyoriy, uzviy va tizimli ravishda yo'naltirish.

Kasb-hunar uzviyligini ta'minlash esa nafaqat o'quvchilarni aniq bir soha bilan tanishtirish, balki o'zini kashf etish, qiziqishlarni rivojlantirish, mehnatga bo'lgan motivatsiyasini shakllantirish va bozor talabi bilan uyg'un holda kasbiy yo'nalishni belgilash demakdir. Alfa avlodning tezkor o'zgarayotgan dunyoda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ta'lim muassasalarida kasbiy ta'limni erta bosqichdan izchil tashkil etish, ta'lim jarayonida raqamli ko'nikmalar, kreativ fikrlash va amaliy mashg'ulotlarga ustuvorlik berish zarur.

Mazkur maqolada alfa avlod vakillari uchun kasb-hunar uzviyligini ta'minlashning dolzarbligi, metodik yondashuvlari, ta'lim tizimida qo'llanishi va kutilayotgan natijalari tahlil qilinadi.

### **Asosiy qism.**

Bugungi kunda ta'lim jarayonida kasb-hunar yo'nalishlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mehnat bozorining jadal o'zgarishi hamda raqamli texnologiyalarning jamiyat hayotiga keng joriy etilishi sharoitida o'quvchilarda erta yoshdan boshlab kasbga yo'nalganlikni shakllantirish zarurati tobora ortib bormoqda. Kasb tanlash jarayonining uzluksiz va bosqichma-bosqich tashkil etilishi bolalarning qiziqishlari, qobiliyatlari hamda shaxsiy salohiyatining to'g'ri rivojlanishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim bosqichida bolalarda kasblar haqidagi boshlang'ich tasavvurlar shakllantiriladi, umumiy o'rta ta'lim bosqichida ushbu tasavvurlar tizimli bilim va qiziqishlar bilan boyitiladi, kasbiy ta'lim bosqichida esa ular amaliy ko'nikma va malakalarga aylantiriladi. Mazkur bosqichlar o'rtasidagi izchillik ta'lim oluvchilarning kasbiy o'zini anglashini mustahkamlab, ularning mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida yangi kasblarning paydo bo'lishi va mavjud kasblarning mazmunan yangilanishi ta'lim oluvchilardan kelajak kompetensiyalariga ega bo'lishni talab etadi. Jumladan, raqamli savodxonlik, media madaniyat, kreativ va tanqidiy fikrlash, shuningdek, moslashuvchanlik kabi kompetensiyalarni shakllantirish kasb-hunar uzviyligi ta'minlangan ta'lim tizimi orqali samarali amalga oshiriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ham kasbiy yo'naltirish jarayonining uzluksiz tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning individual imkoniyatlari, qobiliyatlari va kuchli jihatlarini inobatga olgan holda mos kasblarga yo'naltirish jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuv hamda mustaqil hayotga tayyorgarlik darajasini oshiradi.

Umuman olganda, kasb-hunar uzviyligini ta'minlash ta'lim sifati bilan bir qatorda davlatning iqtisodiy raqobatbardoshligini kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Chunki ongli kasb tanlagan, puxta tayyorgarlikka ega va mehnat bozori ehtiyojlariga moslashgan kadrlar jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Shu bois ta'limning har bir bosqichida kasbga yo'naltirishga oid metodik yondashuvlarni aniq belgilash va ularni izchil amalga oshirish zarur.

**Maktabgacha ta'lim bosqichida metodik yondashuvlar.** Bu bosqichning asosiy vazifasi - kasblar haqida boshlang'ich tasavvur yaratish va bolalarda qiziqish, kuzatish, mustaqil faoliyatga ishtiyoqni shakllantirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Metodik yondashuvlarga esa:

**O'yin orqali o'rgatish** - "Kasblar shaharchasi", rolli o'yinlar orqali bolalarning kasb funksiyalarini tabiiy, qiziqarli va bosqichma-bosqich o'zlashtirishini ta'minlaydi.

**Sensor va tajribaviy faoliyatga tayangan yondashuvda** gul ekish, suv quyish, qurish-yasash, pishiriq tayyorlash kabi amaliy mashg'ulotlar orqali kasbiy jarayonlarga kirib boriladi.

**Rivojlantiruvchi muhit yaratishda** "Kasblar burchagi", mehnat qurollarining maketlari, kasb-hunar atributlari joylashtirilgan kichik burchaklar tashkil etiladi.

Kasb egalari bilan tanishtirish uchun haqiqiy mutaxassislar bilan uchrashuvlar, onlayn tanishuvlar, ekskursiyalar tashkil qilinadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun moslashtirilgan yondashuvda esa soddalashtirilgan materiallar, vizual qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil etish, ko'proq amaliy harakatlar, individual yo'nalish olinadi.

Natijada bolalarda kasblar haqidagi dastlabki obrazlari, mehnatga ijobiy munosabat, qiziqish, tafakkur va ijtimoiy rollarni anglash shakllana boshlaydi.

**Umumiy o'rta ta'lim bosqichida metodik yondashuvlar.** Bu bosqichda o'quvchilarda kasbiy qiziqishlarni chuqurlashtirish, qobiliyatlarini aniqlash va dastlabki yo'nalishni belgilash muhim omil bo'ladi.

**Metodik yondashuvlarga esa:**

kompetensiya asosidagi yondashuvda raqamli kompetensiya, kommunikativ ko'nikma, jamoada ishlash, kreativ fikrlash kabi "kelajak ko'nikmalari"ni shakllantiriladi.

STEM/STEAM-ta'lim integratsiyasida fanlarni bir-biriga bog'lab, hayotdagi kasbiy jarayonlar modeli sifatida qo'llaniladi.

Kasbiy diagnostika va psixologik testlar olish jarayonida esa qiziqishlarni aniqlash testlari, **Holland** modeli, **Gardner** intellekt turlari kabilar bo'yicha kasbiy yo'nalish yuzasidan psixologik suhbatlar o'tkaziladi.

Modulli o'qitish yondashuvida o'quvchining tanloviga ko'ra kasbiy modullar (dizayn,

robototexnika, IT, agrotexnika, xizmat ko'rsatish va boshqalar) tanlanadi.

Ekskursiyalar, master-klasslar, loyiha ishlarida o'quvchilarni haqiqiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish muhitiga olib kiriladi.

Portfolioga asoslangan yondashuvda esa o'quvchi o'z loyihalari, treninglarda ishtirok etish, sertifikatlar va qiziqishlarini jamlab boradigan portfolioni o'zi yuritadi.

Inklyuziv metodikalar orqali individual ta'lim trayektoriyasi, soddalashtirilgan vazifalar, qo'shimcha vizual va audio qo'llab-quvvatlash xizmatlaridan foydalaniladi.

Natijada o'quvchi o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va kelajakda tanlashi mumkin bo'lgan yo'nalishlar haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi.

**Professional ta'lim bosqichida metodik yondashuvlar.** Bu bosqichda o'quvchi kasbni amaliy va nazariy asosda puxta egallashi, mehnat bozoriga moslashishi ta'minlanadi.

**Metodik yondashuvlariga esa:**

Dual ta'lim modeli (ishlab chiqarish + o'qish) orqali amaliyotning katta qismi korxona, ustaxona yoki servis markazlarida o'tadi.

Kasbiy kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuvda ishchi kasblar bo'yicha aniq malaka talablari (skil set) asosida o'qitiladi.

Loyihaviy va amaliy ta'limda o'quvchi buyurtmalar, mijozlar bilan ishlash, xizmat ko'rsatish jarayonida ishtirok etadi.

Mentorlik tizimida har bir o'quvchi bilan tajribali ustalar va mutaxassislar ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

**Agile/lean** yondashuvda moslashuvchan, kichik bosqichlar orqali natija beradigan o'qitish jarayoni qo'llaniladi.

Raqamli platformalardan foydalanishda simulyatorlar, virtual laboratoriyalar, raqamli kuzatuv jurnallari, onlayn baholash kabilardan foydalaniladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun moslashtirish uchun esa o'zgartirilgan ish o'rni, maxsus o'rgatuvchi texnologiyalar, amaliy ko'nikmalarga tayangan dasturlardan foydalaniladi.

Natijada o'quvchi ishlab chiqarishga tayyor, moslashuvchan, mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali mutaxassisga aylanadi.

**Kasb-hunar uzviyligi** - bu o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan uzviy bog'lash, ularni kelajakda tanlashlari mumkin bo'lgan kasblarga tayyorlashni ta'minlovchi yondashuvdir.

***Ta'lim tizimida kasb-hunar uzviyligi konsepsiyasi quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:***

Nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish. Ta'lim jarayonida o'quvchilar nafaqat kasbga oid nazariy bilimlarni, balki ularni haqiqiy ish sharoitida qo'llash ko'nikmalarini ham egallaydi. Masalan, maktab va kasbiy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan dual ta'lim modeli Germaniya va Avstriyada keng qo'llaniladi. Bu modelda o'quvchilar haftaning bir qismini o'quv muassasasida o'qib, qolgan qismini esa korxona va ishlab chiqarish joylarida amaliy mashg'ulotlarda o'tkazadi.

STEM/STEAM va modulli yondashuvlar orqali integratsiya. Kasb-hunar ta'limi STEM/STEAM yondashuvi bilan birlashtirilganda fanlararo bog'lanish hosil qilinadi. Masalan, informatika, robototexnika va dizayn modullari orqali o'quvchilar haqiqiy ishlab chiqarish jarayonlarini modellashni o'rganadi. Modulli yondashuv esa o'quvchiga qiziqish va salohiyatiga mos kasbiy yo'nalishni tanlash imkonini beradi.

Kasbiy diagnostika va individual yo'naltirish. O'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash uchun Holland modeli, Gardner intellekt turlari va boshqa psixodiagnostik testlar qo'llaniladi. Bu metodlar o'quvchilarning kasbiy yo'nalishdagi kuchli tomonlarini aniqlash va ularni rivojlantirish imkonini beradi. Portfolioga asoslangan yondashuv orqali o'quvchilar o'z

loyihalari, amaliy mashg'ulotlar va sertifikatlarini jamlab, o'z kasbiy rivojlanishini kuzatadi.

UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar kasb-hunar ta'limining uzviylikini kuchaytirish bo'yicha davlatlarga metodik va texnik yordam ko'rsatadi.

Xalqaro hamkorlik orqali davlatlar kasb-hunar ta'limi standartlarini global me'yorlarga moslashtirib, o'quvchilarni xalqaro mehnat bozoriga tayyorlaydi. Natijada, kasb-hunar uzviyligi ta'lim tizimida o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan bog'lash, kasbiy qiziqish va kompetensiyalarni rivojlantirish, kelajakdagi kasbiy yo'nalishlarni aniqlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, bu yondashuv mehnat bozorining talablariga mos professional, zamonaviy va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Respublikamizda ham kasb-hunar uzviyligini ta'minlash, kasbiy ta'limni ommalashtirish maqsadida 2026-2027 o'quv yilidan boshlab yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishning yangicha tartibi joriy etish belgilandi:

**“Atrofimizdagi kasblar”** dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5 yoshdan boshlab bolalarda o'yinlar orqali turli kasblar haqida ilk tasavvurlar shakllantiriladi;

**“Kasblar alifbosi”** dasturi asosida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining 1 - 4-sinf o'quvchilariga turli kasblar ahamiyati haqida tushunchalar beriladi va ularning dastlabki kasbiy qiziqishlari rivojlantiriladi;

**“Kasblar olami”** dasturi asosida 5-6-sinf o'quvchilarining kasbiy faoliyat va mehnat sohalariga qiziqishlari rivojlantiriladi va kelajakdagi kasbiy tanlovga tayyorgarlikning asosi yaratiladi;

**“Mening kelajakdagi kasbim”** dasturi asosida maktab maslahatchilari tomonidan 7 - 9-sinf o'quvchilarining kasbiy qiziqishlari, qobiliyatlari va iqtidorlari aniqlanib, ularni akademik ta'lim yoki kasb-hunarga yo'naltirish ishlari tashkil etiladi.

Bunda:

o'quvchilarga videoroliklar namoyishi, korxonalarga ekskursiyaga olib borish va kasb egalari bilan uchrashuvlar tashkil etish orqali kasblar haqida to'liqroq ma'lumotlar beriladi;

maktab psixologlari bilan birgalikda 7-sinf dan boshlab o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari, shaxsiy xususiyatlari va temperamenti asosida kasbga qiziqishi aniqlanadi;

o'quvchilarning kasbga qiziqishiga oid ma'lumotlar asosida har bir o'quvchi uchun shaxsiy kasbga yo'naltirish tavsiyasi ishlab chiqiladi hamda bu masala o'quvchilarning ota-onasi bilan muhokama qilinadi;

2028-yildan boshlab texnikumga yo'naltirish 9-sinf yakuni bo'yicha o'tkaziladigan imtihon natijasiga ko'ra amalga oshiriladi;

maktabning 10-sinf o'quvchilariga o'qishini texnikumlarga ko'chirishga ruxsat beriladi.

2026-yildan boshlab 5-may kuni “Kasb va mehnat kuni” sifatida har yili keng nishonlansin hamda uning doirasida jamoatchilik, ayniqsa, yoshlar orasida kasblar jozibadorligini oshirish va kasbiy ta'limni ommalashtirishga qaratilgan tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilishi belgilangan.

Ta'limning barcha bosqichlarida kasb-hunar uzviyligini ta'minlash yoshlarning kasbiy rivojlanish jarayonini izchil, tizimli va mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirilgan holda tashkil etishga xizmat qiladi. Xalqaro ta'lim tajribasi ushbu jarayonning ko'plab ijobiy natijalarini tasdiqlaydi.

Birinchidan, kasbga yo'naltirishning uzviy tizimi o'quvchilarning ixtiyoriy va aniq kasb tanlash ehtimolini oshiradi. OECD tomonidan o'tkazilgan **“Career Guidance Policy Review”** tadqiqotlari maktabgacha yoshdan boshlab kasbiy rivojlanish bilan shug'ullangan bolalarning katta qismi 17-18 yoshga kelganda aniq kasbiy yo'nalishga ega bo'lishini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, kasb-hunar uzviyligi mehnat bozoriga mos, malakali mutaxassislar yetishib

chiqishini ta'minlaydi. Germaniyaning dual ta'lim modeli misolida ko'rilgandek, maktab–kollej–ishlab chiqarish hamkorligi bitiruvchilarning bandlik darajasini 90 foizgacha yetkazadi.

Uchinchi, ta'lim bosqichlari o'rtasidagi metodik uyg'unlik o'quvchilarda amaliy ko'nikmalar va zamonaviy kompetensiyalarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Singapur ta'lim vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, uzviy kasbiy tayyorlov o'quvchilarda *“XXI-asr kompetensiyalari”* – tanqidiy fikrlash, hamkorlik, muloqot, muammo yechish kabi ko'nikmalar rivojlanish sur'atini 40 foizga oshirgan.

To'rtinchi, kasb-hunar uzviyligi o'quvchilarda kasbiy identifikatsiya va shaxsiy rivojlanish jarayonlarini jadallashtiradi. Kanada **“Career Development Association”** tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, uzviy kasbga yo'naltirish bosqichlari bo'yicha izchil harakat qilgan o'quvchilarda motivatsiya, mas'uliyat va kasbiy o'zini anglash jarayonlari ikki barobar ortadi.

Beshinchi, uzviy kasb-hunarga yo'naltirish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Niderlandiya va Estoniya kabi davlatlarda ushbu tizimning joriy etilishi o'qishni ta'limni tark etish holatlari 28 foizdan 10 foizgacha kamaytirgan hamda o'quv motivatsiyasini 35 foizga kuchaytirgan.

Oltinchi, kasb-hunar uzviyligi mamlakatda raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishga xizmat qiladi. Shveysariya va Avstriya tajribasi kasbiy yo'naltirishning izchil modeli iqtisodiy o'sishga yiliga 1,2–1,5 foiz qo'shimcha hissa qo'shishini ko'rsatadi. Yoshlar bandligi 80 foizdan yuqori bo'lishi bu tizimning samaradorligini tasdiqlaydi.

Yettinchi, uzviy yondashuv alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Norvegiya va Finlyandiya inklyuziv ta'lim modeli misolida maxsus yondashuv va moslashtirilgan kasbiy yo'llar natijasida imkoniyati cheklangan yoshlarning 60 foizdan ortig'i mehnat bozoriga muvaffaqiyatli kirishayotgani qayd etilgan.

### **Xulosa.**

Ushbu maqolada ta'lim tizimining barcha bosqichlarida kasb-hunar uzviyligini ta'minlash masalasiga kompleks va ilmiy yondashuv asosida baho beriladi. Alfa avlodning raqamli muhitda shakllanayotgan yangi psixologik, kognitiv va ijtimoiy xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, ularni kelajakda kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni an'anaviy mavhum yo'naltirishdan ko'ra, real faoliyatga yaqinlashtirilgan, bosqichma-bosqich va tizimli shakllantirilgan mexanizmlarni talab etadi.

Tahlillar ta'limning maktabgacha bosqichidan professional ta'limgacha uzviy bog'langan kasbiy tayyorlov modeli o'quvchilarda kasbiy tasavvurlarni erta shakllantirish, o'z qobiliyat va qiziqishlarini anglash, mehnat jarayoniga ijobiy munosabat rivojlantirish hamda shaxsiy-kasbiy strategiyalarni ongli tarzda shakllantirishga kuchli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Maktabgacha bosqichda o'yin, sensor tajriba va rolga kirish asosidagi metodlar o'quvchilarda kasbiy obrazlarni tabiiy shakllantirsa, umumiy o'rta ta'lim bosqichida psixologik-pedagogik diagnostika va fanlararo integratsiya kasbiy yo'nalishni aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Kasbiy ta'limda esa amaliy ko'nikma, kompetensiya va malakalar chuqurlashib, mehnat bozoriga tayyor mutaxassis yetishib chiqadi.

Xalqaro tajribalar-OECD, Singapur, Germaniya, Kanada, Skandinaviya mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, kasb-hunar uzviyligi ta'lim tizimining samaradorligini oshiradigan asosiy omillardan biridir. Bunday uzviy tizim o'quvchilarning kasbiy tanlov aniqligini oshiradi, o'qishni tark etish ko'rsatkichlarini kamaytiradi, yoshlar bandligini yuqori darajada ushlab turadi va makroiqtisodiy o'sishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, dual ta'lim, haqiqiy mehnat muhiti bilan integratsiyasini, mentorlik tizimi va raqamli platformalarning qo'llanishi zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishning eng samarali vositasi sifatida o'zini oqlagan.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun moslashtirilgan metodik yondashuvlar

kiritilishi esa kasbiy rivojlanishning inklyuziv xarakterini ta'minlaydi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyasi, ijtimoiy mustaqilligi va bandlik imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qiladi.

Yakuniy tahlil shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimida kasb-hunar uzviyligini ta'minlash:  
*yoshlarning kasbiy identifikatsiyasi va kelajak rejalashtirishini mustahkamlaydi;  
mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar salmog'ini oshiradi;  
ta'lim sifatini, o'quv motivatsiyasini va individual rivojlanish trajektoriyalarini  
kuchaytiradi;*

*raqamli ko'nikmalarga ega, moslashuvchan va kreativ mutaxassislar yetishib chiqishiga  
imkon yaratadi;*

*inson kapitalining barqaror o'sishiga strategik hissa qo'shadi.*

Shu bois kasb-hunar uzviyligi nafaqat ta'lim tizimining ichki tarkibiy mexanizmi, balki mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, innovatsion salohiyati va kelajak kasblari uchun raqobatbardosh avlodni shakllantiruvchi ustuvor strategik yo'nalish sifatida qaralishi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 23-oktabrdagi PF-190-sonli Farmoni;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 23-oktabrdagi PQ-316-sonli qarori;
3. OECD. (2021). Career Guidance Policy Review: Improving Career Decision-Making. OECD Publishing;
4. BIBB – Federal Institute for Vocational Education and Training. (2021), The German Dual VET System: Annual Report. Bonn, Germany;
5. Singapore Ministry of Education. (2020). SkillsFuture for Education: 21st Century Competencies Framework. Singapore;
6. Canadian Career Development Association (CCDA). (2019). National Career Development Indicators and Framework. Ottawa, Canada;
7. European Commission (2022), Education and Training Monitor: Reducing Early School Leaving in EU Countries. Brussels;
8. OECD. (2020), Skills Strategy Switzerland: Assessment and Recommendations. OECD Publishing;
9. OECD. (2020), Skills Strategy Austria: Lifelong Learning and Workforce Preparedness. OECD Publishing;
10. Finnish National Agency for Education, (2021). Inclusive Vocational Education and Career Guidance for SEN Students. Helsinki, Finland;
11. Norwegian Directorate for Education and Training, (2021). Inclusive Pathways to Vocational Education: National Report. Oslo, Norway;
12. McCrindle, M. (2020), Understanding Generation Alpha: Characteristics of the Digital Native Cohort. McCrindle Research Institute;
13. UNESCO (2018), Technical and Vocational Education and Training (TVET) for Skills and Employment. Paris: UNESCO Publishing;
14. European Training Foundation (ETF) (2021), Career Guidance and Labour Market Integration: Best Practices Across Europe, Torino;
15. World Economic Forum (2020), The Future of Jobs Report: Skills Outlook for 2025, Geneva;
16. International Labour Organization (ILO). (2021). Youth Employment and Skills Development: Global Trends. Geneva.